

T.S. RAXMATOV

**MOLIYAVIY GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING
AN'ANAVIY OPERATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**



336.5

2-2B


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

T.S. RAXMATOV

**MOLIYAVIY GLOBALIZATSIYA
SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT
BANKLARINING AN'ANAVIY
OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
YO'LLARI**

(MONOGRAFIYA)



H05

TOSHKENT-2023

UO'K:336:330.3(575.1)

KBK 65.262.1(50')

R 28

R 28 T.S. Raxmatov. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari. (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023 – 160 b.

ISBN 978-9910-735-93-6

Monografiyada moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirishni nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq etish, tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivoji borasidagi xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ulardan mamlakat banklari tizimida foydalanish yo'llarini asoslash, tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarining mohiyati va ularni banklar rentabelligidagi o'rni ilmiy izohlash, ularni statistik tahlil qilish hamda ularni rivojlantirish, O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirishni va raqobatbardoshligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, bank xizmatlari va banklar faoliyatini takomillashtirish hamda bank xizmatlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yoritish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishi keltirib o'tilgan.

Monografiyaning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar, ilmiy fikr-mulohazalar hamda nazariy g'oyalardan sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, ushbu soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Bank ishi", "Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish", "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi" kabi fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

UO'K:336:330.3(575.1)

KBK 65.262.1(50')

Taqrizchilar:

- A.A.Omonov – Toshkent moliya instituti Bank ishi kafedrasida professori i.f.d.;
R.R.Tojiyev – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi va investitsiyalar" kafedrasida mudiri i.f.n., dots.

Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashi-ning 2023-yil 4-iyuldagi 11-sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-735-93-6

© T.S.Raxmatov, 2023;

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy rivojlanish internet va axborot texnologiyalari (IT) yordamida raqamlashtirish hamda integratsiyalashuvi jarayonlari bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshmoqda. Bank sohasi ham shiddat bilan raqamlashtirilib, tashkiliy jihatdan butunlay yangi format, ya'ni raqamli bank xizmatlari ko'rinishida namoyon bo'lib, ayniqsa, bu to'lovlar xizmatida yaqqol ko'rinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "2019-yilda butun dunyoda 2,1 milliard iste'molchi to'lash yoki pul yuborish uchun mobil hamyonidan foydalangan bo'lsa, 2020-yilda elektron tijorat hajmi 5855 mlrd. AQSh dollarini, mobil chakana savdo hajmi 1120 mlrd. AQSh dollarini va raqamli tovarlar 139 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan"¹. Bugungi raqamli bank xizmatlariga o'sib borayotgan talablarni imkon qadar to'laroq qondirishda ko'plab muammolar mavjudligi tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Jahonda moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli bank xizmatlarini ommalashtirishning innovatsion yo'llarini joriy etish, tijorat banklar mobil ilovalari orqali mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, onlayn banklar mijozlari sonini ko'paytirish, mamlakatlararo onlayn xizmat ko'rsatish, bank xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan takomillashtirish, bank xizmatlarini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish

¹Annual report Bank of America 2021 consolidated balance sheet **www.bankofamerica.com
; Годовой отчёт по итогам 2020 года/www.cberbank.ru

kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida bank xizmatlarining sifati va ko‘lamini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bank tizimini transformatsiyalash borasidagi islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy, bilimli kadrlar bilan ta‘minlash, bank faoliyatini zamonaviy va raqqli texnologiyalar bilan jihozlash, yangi bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali islohotlar samarasini oshirish asosiy vazifalardan sanaladi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko‘rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko‘rsatkichdan oshmasligi ta‘minlab borilishi, bunda, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi”² belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida tijorat banklarida aholi va tadbirkorlar uchun nisbatan yuqori talab namoyon etuvchi xizmatlarning davriy monitoring asosida saralab turiluvchi to‘plami (paketi)ni ishlab chiqish hamda ularni qulaylashtirilgan tariflarda taqdim qilgan holda bank yalpi daromadi tarkibida foizsiz daromadlar hajmini oshirish, an’anaviy xizmatlarni qulay shaklda taqdim etish orqali barqaror resurs manbai hisoblangan muddatli va

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022.- 4-b.

jamg'arma depozitlar mablag'larni keng jalb qilish yo'li bilan chakana kreditlash hajmini oshirish, tijorat banklarida an'anaviy operatsiyalar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va muhim omillari ta'sirining ekonometrik modeliga asoslangan holda uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

**I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK
TIZIMIDAGI AN'ANAVIY OPERATSIYALARNING NAZARIY
VA HUQUQIY ASOSLARI**

**1.1 - §. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining
an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish xususida ilmiy nazariy
qarashlar**

Moliyaviy globalizatsiya sharoitida respublikamiz banklari faoliyatining rivojlanishi, uning erkinlashuvi iqtisodiy raqobat muhitini shakllantirish jarayoniga hamohang holda davom etmoqda.

Hozirgi kunda bank mahsulotlari va xizmatlari bozori barqaror sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Bank xizmatlari nazariyasi evolyutsiyasi qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichida

X.Duglas³ va G.Brayanning⁴ ilmiy ishlari bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o'rganishga bag'ishlangan. Ikkinchi bosqich alohida mamlakatlarning kredit-moliya tizimlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hamda bank kapitali globallashuvi va markazlashuvining bank xizmatlari bozoriga ta'sirining¹² ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan F.Derek, O.Donnel¹³ Ye.Ballaril ilmiy ishlarida aks etadi. Uchinchi bosqichda «Moliyaviy supermarket» va «moliyaviy butik» g'oyasi hamda tor yo'nalishga ixtisoslashgan banklarning universal banklar qatoriga qo'shilishi dolzarblik kasb etdi. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron

³ Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. - М.: Слово, 1971. - 508 с.

⁴ Брайн Г. Конкуренция в банковской сфере. - М.: Экономика и финансы, 1970. - 428 с.

xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko'paydi. Bu borada D.Jentle, J.Sinki⁵, P.Rouz⁶ ilmiy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Avvalo, bank tushunchasiga e'tibor qaratidagin bo'lsak, rossiyalik olim O.I.Lavrushina quyidagicha ta'riflaydi:

“Bank — ma'lum mahsulot ishlab chiqaradigan muassasa bo'lib, moddiy ishlab chiqarish sohasidan farq qilib pul, to'lov vositalari ko'rinishidagi maxsus tovarlarni ishlab chiqaradi. Ushbu mahsulotlarga qo'shimcha ravishda banklar, asosan, pul xarakteridagi xizmatlarni taqdim etadi.”⁷

Bunda O.Lavrushin bank yaratadigan tovarlarni nomodidy ko'rinishga ega ekanligini hamda pul va to'lov vositalari shakliga ega ekanligini e'tirof etgan.

D.Sinkining fikricha, “Banklarning asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat”⁸.

Bu yerda J.Sinki tijorat banklarini moliyaviy vositachi sifatidagi rolini e'tirof etgan va moliyaviy operatsiyalar jarayonini axborotlar bilan ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydigan subyekt sifatida talqin qilgan.

F.Mishkinning fikricha, “Aynan banklar va boshqa moliya institutlarining faoliyati moliya bozorlarining ishlashini ta'minlaydi,

⁵ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.

⁶ Роуз П. Банковский менеджмент, предоставление финансовых услуг. - Москва: Дело, 1995. - 438 с.

⁷ Лаврушина.О.И Банковское дело. Экспресс-курс: учебное пособие. 2016. 12 с.

⁸ Д.Синки Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с

ularsiz mablag'larni bo'sh resurslardan samarali foydalana oladiganlarga o'tkaza olmaydi. Binobarin, moliya institutlari butun iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi"⁹.

F.Mishkin ushbu xulosasida tijorat banklarini moliya bozorlarining asosiy ishtirokchisi ekanligini e'tirof etgan va asosiy e'tiborini moliyaviy resurslarni banklar orqali qayta taqsimlanishiga qaratgan.

Z.Umarov o'zining yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish nomli maqolasida bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Bank xizmatlari dastlabki ishlab chiqarish va shaxsiy ehtiyojlarni emas, balki ularning hosilasi bo'lgan moliyaviy ehtiyojlarni qondiradi"¹⁰.

Z.Umarovning yangi bank xizmatlari xususidagi fikri munozaralidir. Chunki, bank xizmatlari faqat moliyaviy ehtiyojlarni qondirmaydi. Masalan, ipoteka krediti berish mijozning moliyaviy ehtiyojini qondirish hisoblanmaydi.

O.Aliqoriyev tomonidan o'z tadqiqotlarida "Bank xizmatlari, bank operatsiyalari va bank mahsulotlari tushunchalarini tadqiq etadi va bu tushunchalarning har biriga ta'riflab o'zaro bog'liqligini va bir-birini to'ldirib turishini ko'rsatib beradi:

Bank xizmati — bu mijozlarga taqdim etiladigan bank operatsiyalarining optimal bajarilishiga ko'maklashuvchi bank faoliyatining ko'rinishidir.

Bank mahsuloti — bu moliya bozoridagi oldi-sotdi obyekt

⁹ Мишкин.Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков, 7-е издание: Пер. с англ. - М.:ООО "И.Д. Вильямс", 2006. С-42

¹⁰ Umarov Z. Yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish//«Bozor, pul va kredit» jurnali. 1-son, 2019 y.

hisoblangan bank operatsiyasining moddiy shaklidir”¹¹.

O.Aliqoriyev tomonidan berilgan ta’riflarda birmuncha chalakshlik mavjud. Ya’ni, yuqoridagi ta’riflarda bank xizmati va bank operatsiyasi o’rtasidagi jiddiy farqlanish kuzatilmaydi. Aslida, bank xizmati bank tomonidan yaratilgan mahsulotni mijozga taqdim etilishidir. Bank operatsiyasi – bu bank mahsulotini yaratish uchun qilingan harakatlarning yig’indisidir.

Fikrimizcha, bank xizmatlari tugallangan mazmunga ega bo’lgan qo’shimcha harakatlar natijasi bo’lishi ham mumkin. Masalan, kredit xizmati. Kredit xizmati tugallangan mazmunga ega bo’lgan harakatlar natijasidir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini ko’rsatishda birmuncha o’zgarishlar bo’lib, bunda bank xizmatlarining raqamli texnologiyalar yordamida masofadan, onlayn tarzda xizmatlarini taklif etadilar va amalga oshiradilar. Bu esa bank xizmatlarini ko’rsatishda inson omilini cheklaydi va bir qator byurokratik to’siqlarni bartaraf etadi hamda bank xizmatlarning ommaboblighi darajasini yanada oshiradi.

Z.Mamadiyarov tadqiqotlariga ko’ra, bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o’zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog’liq. Uning fikricha, “Mohiyatan bank va mijoz o’rtasidagi aloqaning an’anaviy va masofadan tashkil etilishi o’rtasida keskin farq mavjud emas. Bank

¹¹ Aliqoriyev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo’nalishlari. Dis. i.f.n., - T.: BMA, - 2011. – 28 b

mijozlariga xizmat ko'rsatish kerakligi saqlanib qolingan, faqatgina bank va mijozlarini o'zaro bog'laydigan aloqa kanali o'zgardi. Ya'ni faqat bank mijozlari bankka borib bajaradigan operatsiyalarini endilikda masofadan ham amalga oshirish imkoni mavjud bo'ldi"¹².

Haqiqatdan ham, an'anaviy bank xizmati bilan masofaviy bank xizmati o'rtasida jiddiy farq mavjud emas. Faqat moliyaviy xizmatlar masofaviy tarzda onlayn shaklda ko'rsatiladi.

Umuman olganda, masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilg'or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko'rsatilmaligi natijasida bank mijozlarining o'z bankiga bo'lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qiladi"¹³.

Banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar yuqoridagi xususiyatlarga ega bo'ladi. Endi bank operatsiyasi, bank xizmati va bank mahsuloti tushunchalarini mazmuniga ta'rif berib o'tamiz.

“Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul

¹² Mamadiyarov. Z.T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtoreferat. 2019y. 13b

¹³ Tojiyev R.R., Rahmatov T.S. Zamonaviy sharoitda bank xizmatlar bozorining nazariy jihatleri // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui"¹⁴.

Mijozlardan pul mablag'larini jalb qilish, ularni joylashtirish va ushbu amaliyotlarni bajarishda aniq, oldindan belgilab olingan iqtisodiy masalalarni nazarda tutish zarurligi bank operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozimki, pul mablag'larini jalb etish va joylashtirish, asosan, bank va mijozning o'zaro teng huquqli va tomonlar manfaatlarini ifodalovchi harakatlari yig'indisidir.

Bank xizmatlari nazariyasidagi atamalarning zaif bazasi, zamonaviy bank xizmatlari bozorida g'arb banklari tajribasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, bank xizmatlarini eng yangi bank texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatish kabi qator muammolar axborotning yopiqligi va olib bo'lmasligi, g'arb va mamlakatimizdagi manbalarda, asosan, umumiy tavsif va tavsiyalarining mavjudligi kabi obyektiv sabablar tufayli yetarli darajada batafsil o'rganilmagan. «Bank xizmati», «bank mahsuloti», «bank operatsiyasi» tushunchalariga berilgan ta'riflarni chuqur tahlil qilish asosida, ularga takomillashtirilgan ta'rif berildi va ushbu tushunchalarning farqi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi aniqlandi.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimal-
lashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional
bank faoliyatidir. Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati

¹⁴ Ortiqov O.A. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. : iqt. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 2009. - 20 b.

majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda, bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashtirish ham muhim element sifatida kiritildi, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatligi darajasiga e'tibor berishlari va ushbu ko'rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta'minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

1.1-jadval

«Operatsiya» va «Xizmat» tushunchalarining farqlanishi¹⁵

Xizmat	Operatsiya
— Boshqaga foyda keltiradigan harakat	— O'zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat.
— Nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar	— Bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui.
— Moddiy tabiatni o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mehnatning barcha turlari. Bu narsalar iste'moliga xizmat ko'rsatish vositasida aholining har xil individual talablarini qondirishga qaratilgan mehnat turlari	— Mijozlar hisobidan va topshirig'iga asosan, bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalar.
— Yangidan mavjud bo'lmagan mahsulot yaratilmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o'zgaradigan jarayonni amalga oshiruvchi ishlar, faoliyat turlari. Bu ashyolar ko'rinishida emas, balki faoliyat xizmatlar ko'rinishida taklif etiluvchi ne'matdir.	— Pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish operatsiyalari.
	— Bir iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank faoliyati.
	— Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish bilan bog'liq harakat.

¹⁵ Lending / Chartered Institute of Bankers. - London: BPP Publishing, 2003. ISBN 0-7517-1015-6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, bank xizmatlari va operatsiyalari o'rtasidagi farq, asosan, uning foyda olish va o'z mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Tijorat banklari xizmatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga va ko'zlangan maqsadga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar;
2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar.

Ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud bo'lib, ular bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligini ta'minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba'zi birlari bankka daromad keltirsa-da, ular mavjudligini sababi bank umumiy likvidligini ma'lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlarini turli mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin: Jumladan:

a) mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi jihatidan:

— to'g'ri xizmatlar (direct services), bevosita mijozlarning ehtiyojlarini qondiradi, masalan, to'lovlarni o'tkazish, hisobvaraqlar ochish, investitsion xizmatlar;

— bilvosita xizmatlari (related services), mijozlarga taqdim etilishi bilan ularga qulaylik tug'diradigan va foydali bank xizmatlari bo'lib, ularga (kliringoviy xizmatlari, xom banking, maslahat xizmatlari, plastik kartochkalar).

Nazariy jihatdan murakkablik darajasi bo'yicha bank xizmatlari

va mahsulotlarini quyidagi darajalarga bo'lish mumkin:

1-darajali mahsulotlar va xizmatlar – ko'pchilik iste'mol qiluvchi va foydalanuvchi bank xizmatlari (kreditlash, depozitlar jalb qilish, kliring xizmatlari va boshqalar),

2-darajali mahsulotlar va xizmatlar – maxsus tayyorgarlikka ega bank xodimlarini talab qiluvchi xizmatlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar);

3-darajali mahsulotlar va xizmatlar, professional bilimlar va tajribani talab qiluvchi xizmatlar bo'lib, ularga korporativ moliya, turli aktivlarni boshqarish.

4-darajali mahsulotlar va xizmatlar, moliyani rejalashtirish, moliya injeneriyasi sohasidagi maxsus bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar hisoblanadi.

Bank xizmatlari bozori – mijozlar talabini qondirishga qaratilgan bank xizmatiga bo'lgan talab va taklifning shakllanish sohasi.

Bank xizmatlari bozorini joylashuvi bo'yicha:

— Mahalliy bank xizmatlari bozori: ma'lum bir viloyat, tuman yoki hudud ichidagi xizmatlar bozori tushuniladi;

— milliy bank xizmatlari bozori: bu alohida olingan mamlakat xududida tashkil qilingan va amal qiladigan bozordir;

— xalqaro bank xizmatlari bozori, ya'ni turli davlatlar o'rtasida yoki ular tomonidan tashkil qilingan turli bozorlar tushuniladi.

Bundan tashqari, bank xizmatlari bozorini xizmatlar ko'rsatish ko'lamiga qarab 2 turga bo'lgan holda:

— chakana bank xizmatlari bozori;

— ulgurji bank xizmatlari bozori.

Bozor iqtisodiyoti qonunlaridan asosiysi shundan iboratki baho har doim bozordagi talab va taklif natijasida aniqlanadi. Shunday ekan, bank xizmatlari bozorida, ko'rsatiladigan xizmatlar, operatsiyalar va bank mahsulotlarining bahosi, mijozlar tomonidan ularga bo'lgan talab, hamda xizmatlar taklifining sifati, tezkorligi kabi omillar ta'siri orqali aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, internet paydo bo'lishi bilan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va moliyaviy operatsiyalar o'tkazishning yangi andozalari bilan ajralib turuvchi bank xizmatlari bozori shakllandi. Bunda elektron pullarni joriy etish, intellektual dastur ta'minoti rivoji va tarmoq texnologiyalarini takomillashtirish, ular rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi. Turli ma'lumotlar bazasiga elektron kirish ichki va tashqi iqtisodiy va analitik ma'lumotlarni tahlil qilish, mablag'larni investitsiyalash, qimmatli qog'ozlarni sotib olish qarorini qabul qilish uchun ularni akkumulyatsiya qilish imkonini beradi. Mijoz qarzi va mulki hamda uning qiymati bahosini o'zida namoyon etuvchi «mulkiy schotlar»ning kiritilishi kelajak yo'nalishlardan bo'lib qoldi. Mijoz va bank kompyuter tarmog'ining ulanishi hisobvaraqa egasining hisobvaraqa holatini nazorat qilish va operatsiyalar o'tkazilishini markazlashtirish imkonini beradi.

Xorij bank xizmatlari bozorining to'lovlar va banklararo hisob-kitoblarni tashkil etish sohalaridagi raqobatbardosh xususiyatlari bo'lib, o'tkazishlarining operativliligi va tezkorligi, informatsion

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMIDAGI AN‘ANAVIY OPERATSIYALARNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	6
1.1. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an‘anaviy operatsiyalarini rivojlantirish xususida ilmiy nazariy qarashlar	6
1.2. O‘zbekiston tijorat banklarining an‘anaviy operatsiyalarini rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari	18
1.3. O‘zbekiston bank tizimidagi operatsiyalarning iqtisodiy mohiyati hamda an‘anaviy operatsiyalar turlari	28
I Bob bo‘yicha xulosa	37
II BOB. MOLIYAVIY GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING AN‘ANAVIY OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH VA UNI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	41
2.1. O‘zbekiston tijorat banklarining an‘anaviy operatsiyalarining tahlili.....	41
2.2. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida xorijiy mamlakatlar banklarida an‘anaviy operatsiyalar amaliyoti va uni O‘zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo‘llash yo‘llari.....	66
2.3. Tijorat banklarining depozit va kredit operatsiyalari.....	82
II Bob bo‘yicha xulosa.....	107

III BOB. O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING AN’ANAVIY OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	110
3.1. Tijorat banklarining an’anaviy operatsiyalarini rivojlantirish muammolari.....	110
3.2. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida O‘zbekiston tijorat banklarining an’anaviy operatsiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal qilish yo‘llari.....	125
III Bob bo‘yicha xulosa.....	138
Xulosa	141
Foydalanilgan adabiyotlar	144